



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



12-avgust
2026

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi

“MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 258 sahifa.
2026-yil, avgust*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

KIRISH

EKOLOGIK QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA “YASHIL” TARAQQIYOT BORASIDAGI PARLAMENT NAZORATI



Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi
O'zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasining rahbari

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Jahonda kechayotgan iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik tahdidlar barcha davlatlar oldida umumiy vazifalarni qo'yimoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

“Yashil” taraqqiyotni ta'minlash zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish, uni muntazam takomillashtirib borish hamda qabul qilingan qonunlar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir.

Muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ekologik qonunchilik samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga keng joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash hamda ularning ijrosini ta'minlashda parlamentning o'rni va mas'uliyati tobora ortib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash va “yashil” taraqqiyotga erishish har qanday davlatning puxta o'ylangan huquqiy siyosatiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, so'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda ekologik sohada qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, 2023-yilda xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...» degan jumlar ham bu borada mamlakatimiz o'zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizda ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori «ekologik huquq» tushunchasi kiritildi.

Xususan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta'minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda o'rmonlardan foydalanish, yaylovlarni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik audit, gidrometeorologiya, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ichimlik suvi ta'minoti hamda suv resurslarini boshqarish sohalarida qabul qilingan qonunlar mazkur yo'nalishda yaxlit huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ekologik qonunchilikni takomillashtirishda quyidagi yo'nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

birinchidan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash;

ikkinchidan, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va oldini olish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;

uchinchidan, yerdan foydalanish va muhofaza qilish;

to'rtinchidan, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish;

beshinchidan, suvdan foydalanish va muhofaza qilish;

oltinchidan, o'simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish;

yettinchidan, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;

sakkizinchidan, atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi;

to'qqizinchidan, gidrometeorologiya sohasi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

2016–2025-yillarning o'zida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilinib, ular ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimini yaratish uchun poydevor bo'ldi.

Jumladan, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Ekologik audit to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida", "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi yaxlit va yangi tahrirdagi qonunlar hamda Suv kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, biologik xilma-xillikni asrash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

Bugungi kunda ekologik qonunchilikning asosiy vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya siyosatini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Xususan:

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati";

davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi tomonidan davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan parlament so'rovi yuborish;

Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini tegishli qo'mita tomonidan o'rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

deputatlik so'rovlari yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi va uning deputatlari ham mazkur jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

2025-yil davomida Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan ekologik masalalar yuzasidan 2 marotaba hukumat a'zolarining axboroti eshitildi va davlat organlarining mansabdor shaxslariga 3 marotaba parlament so'rovi yuborildi.

Shu bilan birga, fraksiya yig'ilishlarida sohadagi qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan 13 marotaba tegishli mansabdor shaxslarning axborotlari eshitildi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fraksiyamiz Qonunchilik palatasi deputatlari bilan hamkorlikda kelgusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni tizimlashtirish, qonunlarda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida ish olib bormoqda.

Jumladan:

ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksini maromiga yetkazish;

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini;

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasini ishlab chiqish oldimizda turgan ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ekologik qonunchilikni takomillashtirish va "yashil" taraqqiyotni ta'minlash jarayonida parlament nafaqat qonun qabul qiluvchi oliy vakillik organi, balki qabul qilingan qonunlarning hayotga to'liq va samarali tatbiq etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiruvchi muhim konstitutsiyaviy institut sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Ishonchim komilki, mazkur xalqaro konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy yondashuvlar, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, o'zaro tajriba almashish hamda barqaror va "yashil" taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida muhim muvaffaqiyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



MUNDARIJA

AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI MILLIY DARAJADA AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	24
Teshaboyev To'liqin Zakirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI IQTISODIY VA HUQUQIY QO'LLAB-QUVVATLASH, INSTITUTIONAL MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	31
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
TAKOMILLASHTIRISH: YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	37
Shamsiddin Allayarov	
EKOLOGIYA SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	45
S. Sh. Utemuratova	
EKOLOGIK BARQARORLIK — YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI.....	49
G'afforov X. L.	
MENEJMENT VA BIZNES BOSHQARUVIDA EKOLOGIK, YONDASHUV, ESG TAMOIYILLARI, “YASHIL” STRATEGIYA VA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARI	58
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich	
РОЛЬ ГРУППЫ ДЕПУТАТОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ДВИЖЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ	65
Алиханов Борий Батирович Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
YASHIL ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISH HAMDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL PARTIYALARNING GLOBAL AHAMIYATI.....	69
Xursanov Kamoljon Erkinjon o'g'li Qo'chqorov Islomjon Nurali o'g'li	
RESPUBLIKAMIZDA EKOLOGIK SIYOSAT VA XAVFSIZLIK MASALALARI.....	73
Raximov Oybek Raimovich Xofizov Baxriddin Turdievich	
AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA TA'LIM IMKONIYATLARI (STEAM YONDASHUVI MISOLIDA).....	76
N. Matkarimova	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR PARLAMENTINI MUHIM DEMOKRATIK INSTITUT SIFATIDA SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI VA ISTIQBOLDAGI REJALAR.....	80
Abdullayev Muxammadqodir Mashxur o'g'li Xushvaqtov Feruzbek Iloxom o'g'li	
СОТРУДНИЧЕСТВО ПАРЛАМЕНТА УЗБЕКИСТАНА С ННО В ПОВЫШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ	83
Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
OROLBO'YI MINTAQASIDA «SUV IQTISODIYOTI» VA «YASHIL OBLIGATSIYALAR» (GREEN BONDS) TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA PARLAMENT NAZORATI VA QONUNCHILIK MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	87
Otamuratov Oybek Baxtiyorovich	



INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA EKOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING IJTIMOIIY PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	93
Xodjaye va Mohira Mirzahmadovna	
KORXONALARNING BARQAROR RIVOJLANISH TIZIMIDA EKOLOGIK VA IJTIMOIIY KO'RSATKICHLAR AUDITI.....	97
Akbarov Azizbek Abdusattarovich	
O'ZBEKISTONDA XALQARO BIZNESNING BARQAROR RIVOJINI TA'MINLASHDA MARKETING VA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI.....	103
Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi	
TOZA HUDUDDAN YASHIL TAFAKKURGA — EKOLOGIK ISLOHOTLARNING AMALIY NATIJALARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	107
Alimardonova Z. M.	
SUV RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISH — BARQAROR TARAQQIYOT OMILI	111
Jo'rayev Komiljon Begmonovich	
Xudoyqulov Avloqul Nurmanovich	
IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHISH SHAROITIDA SHAHAR VA SANOAT HUDUDLARINI «YASHIL» ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY KAFOLATLARI	114
Berdikulova Munira Faxriddin qizi	
EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA XALQARO HUQUQIY STANDARTLARNI O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISH: XALQARO MAJBURIYATLAR IJROSI USTIDAN PARLAMENT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	118
Egamberdiyeva Sevara Baxodir qizi	
EKOLOGIK MASALALARDA PARLAMENTLARARO HAMKORLIK VA XALQARO TAJRIBA ALMASHINUVI	123
Ergasheva Nodira Toxir qizi	
IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHUV SIYOSATIDA FARG'ONA VILOYATINING YEROSTI SUVLARI MONITORINGI.....	127
Abdulxayev Zoxidjon	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENT NAZORATINING NATIJADORLIGI: INSTITUTSIONAL MEZONLAR.....	132
Saburova Juldizxan Axmetovna	
O'ZBEKISTONDA IQLIM O'ZGARISHINING AMUDARYO HAVZASI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI SUV RESURLARI HAMDA QISHLOQ XO'JALIGIGA TA'SIRI	137
Mamadiyarov Dilshod Uralovich	
Xodjiyev Alisher Kuldashovich	
IQLIM O'ZGARISHINING ZAYTUN NAVLARINING GULLASHIGA TA'SIRI	140
Yormatova D.Y.	
Xaydarkulov S.	
BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI AMALGA OSHIRISHDA PARLAMENT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH	143
Jo'rayeva Shahina Narzullayevna	
IQLIM MUAMMOLARI VA ULARNI YUMSHATISHGA DOIR AMALIY YECHIMLAR.....	146
Mirxoliqova Charos Xabibullaevna	
Qodirova Shahnoza Ziyodulloyevna	
YASHIL BELBOG'LAR NEGA KERAK?.....	149
Yormatova Dilorom Yormatovna	
MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI: XOTIN-QIZLAR ISHTIROKI VA JAMOATCHILIK NAZORATI.....	154
Sharipova Diyora Botirovna	



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA EKOLOGIK MADANIYAT VA KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	158
Toshturdiyev Nurbek Nurali o'g'li Hakimova Mahbuba	
EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING AHAMIYATI.....	163
Qutlymuratov Baxitbay Xojabayevich	
ARASTUNING ONG VA TABIAT HAQIDAGI TA'LIMOTINING SHARQ FALSAFASIGA TA'SIRI.....	166
Umaraliyeva Gulchexra Baxodirjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВОЧНОЙ ИНДУСТРИИ: ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И ОЦЕНКА РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ.....	169
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
TALABA-YOŠHLARDA EKOLOGIK-HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	172
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
MINTAQAVIY EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA O'RMON FONDI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH HAMDA PARLAMENT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	177
Egamberdiyev Shaxzod Baxodir o'g'li	
MARKAZIY O'ZBEKISTON SUV QUSHLARI GELMINTOFAUNASINING HUDUDLAR KESIMIDA TAQSIMLANISHI	182
Soliyeva Gulnoza Daniyarovna	
ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОЛУЧЕНИЯ ТОФУ ИЗ СОЕВОГО МОЛОКА С ПРИМЕНЕНИЕМ РАЗЛИЧНЫХ КОАГУЛЯНТОВ И ОЦЕНКА ЕГО КАЧЕСТВА	185
Ш. А. Ишниязова Д. Нурвафаева К. О. Додаев	
PARIJ IQLIM BITIMI VA BRM 13-MAQSADINI AMALGA OSHIRISHDA PARLAMENT DIPLOMATIYASI: XALQARO MAJBURIYATLARNING MILLIY QONUNCHILIKKA INTEGRATSIYASI.....	188
Abdullayeva Shahlo Shokir qizi Muitov Davron Sabirovich	
FOND BOZORIDA INVESTORLARNING INVESTITSION XULQ-ATVORINI TAKOMILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNING AHAMIYATI	193
Karimova Nurjahan Olim qizi	
EKOLOGIK MADANIYAT — KELAJAK OLDIDAGI MAS'ULIYAT: AHOLINING EKOLOGIK ONGINI YUKSALTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI.....	197
Rustamova M. M.	
O'ZBEKISTON SHAHARLARIDA KO'KALAMZORLASHTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI: EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA DAVLAT SIYOSATI VA PARLAMENTNING ROLI.....	200
Asomxonova Rayxonaxon Xolova Shoxista Abduvositovna	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING O'RNI.....	204
Dadaboyev Husanboy G'ofurovich	
YOŠHLARDA EKOLOGIK VATANPARVARLIK HISSINI SHAKLLANTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI	210
Oripov Ahmadjon Muhammadjonovich	



IQLIM O'ZGARISHI VA «YASHIL» IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINING HUQUQIY HAMDA INSTITUTSIONAL FAOLIYATI.....	214
Raxmanov A. M.	
TOG'-KON FAOLIYATINING EKOLOGIK TA'SIRINI BAHOLASH VA KAMAYTIRISHNING ILMIY ASOSLARI	217
Abduniyazov Xusan	
IQLIM O'ZGARISHI VA SUV TANQISLIGI.....	222
Xushvaqtova X. S.	
EKOLOGIK MADANIYATNI YUKSALTIRISHDA PARLAMENT VA FUQAROLIK JAMIYATI HAMKORLIGI: IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL.....	226
Alikulov Xusniddin Akbarovich	
IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHISH VA UNING SALBIY OQIBATLARINI YUMSHATISH	231
Mavlonova Madinabonu	
EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA O'ZBEKISTON EKOLOGIK PARTIYASI FRAKSIYASI VA MAHALLIY KENGASH DEPUTATLARINING O'RNI.....	234
Elmirzayev Bahrom Toshkentovich	
EKO-KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMNING O'RNI VA METODIK YONDASHUVLARI.....	238
Raxmanova Zebiniso Po'latovna Raximov Oybek Raimovich	
РАЗРАБОТКА НАУЧНЫХ ОСНОВ СТРАТЕГИИ ЭКОЛОГИЧЕСКИ УСТОЙЧИВОГО ТРАНСПОРТА	243
Шадиметов Юсуфжан Шадиметович Айрапетов Дмитрий Алексеевич	
ACADEMIC STAFF PERFORMANCE AND HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN MODERN UNIVERSITIES	246
Sultonboyeva Munira Bahodirovna Sultanova Kamila Mukhtorali kizi	
SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI BOSHQARISHGA OID ILMIY YONDASHUVLARNING EVOLYUTSIYASI.....	252
Kurbonov S.A.	
ОРГАНИЗАЦИОННАЯ ГОТОВНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА К ПЕРЕХОДУ К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ	257
Абдуллаева Одинахон Гайратжон кизи	
ANZUR PIYOZI URUG'LARINING LABORATORIYA SHAROITIDA UNISH XUSUSIYATLARI.....	262
Uzoqova Zubayda Javlijevna Nizomova Maxsuda Usmankulovna	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	267
Abdikayumov Bekzod Turdiniyozovich	
YASHIL RAQAMLI INFRATUZILMA VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA KONTENT TAQSIMLASH TIZIMLARINING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI	270
Xujamatova Shaxlo Abdusalom qizi	
AHOLI DAROMADLARINING SHAKLLANISH MANBALARI, TARKIBI VA TAQSIMLANISH MUNOSABATLARI.....	275
Abidova Shahnoza Abduvaliyevna	
TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING IQTISODIY SAMARADORLIGI	279
Nurullayeva Mexribon Muratovna	



ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ЭКОСИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	283
Абзалова Нозимахон Нодирбек кизи	
INFRATUZILMA LOYIHALARINI TASHABBUSLI BUDJET ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI.....	287
Mirzayev Xursanmurod Egamberdiyevich	



INFRATUZILMA LOYIHALARINI TASHABBUSLI BUDJET ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI

Mirzayev Xursanmurod Egamberdiyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi
E-mail: xursanmurodmirzayev9@gmail.com
ORCID: 0009-0004-3489-3916

Annotatsiya. Mazkur tezisda O'zbekistonda tashabbusli budjet mexanizmi orqali infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlil qilingan. Hududlar va loyihalar yo'nalishlari bo'yicha mablag'larning taqsimlanishi, fuqarolarning jarayondagi ishtiroki, "Deputat tashabbusi" mexanizmi hamda ayrim moliyaviy va natijaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqliklar ko'rib chiqilgan. Tahlil natijalari tashabbusli budjet mablag'larining asosan yo'l, ichimlik suvi, ta'lim va boshqa ijtimoiy infratuzilma yo'nalishlariga yo'naltirilayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, hududlar kesimida moliyalashtirish hajmi va fuqarolar faolligi o'rtasida muayyan tafovutlar mavjudligi aniqlangan. Olingan natijalar tashabbusli budjet mexanizmini yanada takomillashtirish va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tashabbusli budjet, infratuzilma loyihalari, hududiy rivojlanish, moliyalashtirish, Ochiq budjet, fuqarolar ishtiroki, Deputat tashabbusi, mahalliy budjet, davlat-xususiy sheriklik.

Abstract. This thesis analyzes the current state of financing infrastructure projects in Uzbekistan through the participatory budgeting mechanism. It examines the distribution of funds across regions and project areas, citizens' participation in the process, the "Deputy Initiative" mechanism, and the relationships between selected financial and performance indicators. The results show that participatory budgeting funds are mainly directed toward roads, drinking water supply, education, and other social infrastructure areas. The analysis also reveals certain regional differences in financing volumes and citizen activity. The findings can serve as a basis for developing practical and research-based recommendations to further improve participatory budgeting and enhance the efficiency of infrastructure project financing.

Keywords: participatory budgeting, infrastructure projects, regional development, financing, Open Budget, citizen participation, Deputy Initiative, local budget, public-private partnership.

Аннотация. В данном тезисе проанализировано текущее состояние финансирования инфраструктурных проектов в Узбекистане посредством механизма инициативного бюджетирования. Рассмотрены распределение средств по регионам и направлениям проектов, участие граждан в процессе, механизм «Депутатская инициатива», а также взаимосвязи между отдельными финансовыми и результативными показателями. Результаты анализа показывают, что средства инициативного бюджетирования преимущественно направляются на развитие дорожной инфраструктуры, питьевого водоснабжения, образования и других объектов социальной инфраструктуры. Также выявлены определённые различия между регионами по объёмам финансирования и уровню активности граждан. Полученные результаты могут служить основой для разработки научно-практических выводов по дальнейшему совершенствованию механизма инициативного бюджетирования и повышению эффективности финансирования инфраструктурных проектов.

Ключевые слова: инициативное бюджетирование, инфраструктурные проекты, региональное развитие, финансирование, «Открытый бюджет», участие граждан, «Депутатская инициатива», местный бюджет, государственно-частное партнёрство.



KIRISH

So'nggi o'n yillikda jahon miqyosida infratuzilma sohasini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etib kelinmoqda. Transport tarmoqlari, ichimlik suvi ta'minoti infratuzilmasi, energetika va ijtimoiy obyektlarga bo'lgan talabning borgan sari oshib borishi an'anaviy budjet mablag'lari bilan bir qatorda muqobil moliyalashtirish shakllarini topishni taqozo qilmoqda. Xorij tajribasi ko'rsatmoqdaki, qirqdan ortiq mamlakatning bir nechta ming mahalliy hokimiyat organi fuqarolarni budjet jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri jalb qiluvchi tashabbusli budjetlash amaliyotidan foydalanmoqda. Ushbu mexanizm markazlashgan davlat moliyasi tizimini to'ldiruvchi, hududiy muammolarni tezkor aniqlash va bartaraf qilishga xizmat qiluvchi vosita sifatida shakllanib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham davlat moliyasini boshqarishda ochiqlik va fuqarolar ishtirokini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. "Ochiq budjet" portali orqali joriy etilgan tashabbusli budjet mexanizmi aholining hududiy infratuzilma muammolarini hal etish jarayonidagi ishtirokini ta'minlovchi muhim mexanizmlardan biriga aylandi. So'nggi mavsum yakunlariga ko'ra, portalga yigirma sakkiz mingdan ortiq tashabbus taqdim qilingan, ularning yigirma uch mingdan ziyodi ovoz berish bosqichiga chiqarilgan va ikki mingdan oshiq loyiha g'olib deb topilgan, bunga esa uch trillion so'mdan ortiq summa yo'naltirilgan hamda o'n milliondan ziyod fuqaro jarayonda faol qatnashgan. Bu ko'rsatkichlar mexanizmning ko'lami va ijtimoiy ahamiyati yildan-yilga oshib borayotganidan darak beradi. Tashabbusli budjet doirasida moliyalashtirilgan loyihalarni yo'nalishlar bo'yicha guruhlash mablag'larning muhim qismi aholining kundalik ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq infratuzilma yo'nalishlariga yo'naltirilayotganini ko'rsatadi.

Loyihalarning qariyb uchdan bir qismi ichki yo'llarni ta'mirlash va transport infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, bu yo'nalish boshqa yo'nalishlarga nisbatan eng katta ulushni egallaydi.

Ikkinchi o'rinda ichimlik suvi ta'minoti loyihalari turadi, ular umumiy hajmning qariyb beshdan bir qismini tashkil etib, bir yarim mingdan ortiq loyihani qamrab oladi, bu ko'rsatkich ayrim hududlarda toza ichimlik suvi bilan ta'minlashga bo'lgan ehtiyojning dolzarbligini anglatadi. Ta'lim muassasalarini yaxshilashga qaratilgan loyihalar o'n ikki foizlik ulush bilan uchinchi o'rinda, bu esa aholining ta'lim infratuzilmasiga bo'lgan ehtiyojini o'zida aks ettiradi. Shuningdek, elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, sport inshootlarini qurish va ta'mirlash loyihalari ham muayyan ulushni tashkil etadi, sog'liqni saqlash sohasidagi loyihalar esa jami hajmning atigi bir necha foizini tashkil qilib, nisbatan kam ulushga ega yo'nalish sifatida ko'rsatilgan.

Ushbu taqsimot tashabbusli budjet mablag'larining asosan aholining kundalik hayoti bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan sohalarga, yo'l, suv va ta'lim infratuzilmasiga sarflanayotganligini ko'rsatadi. Sog'liqni saqlash yo'nalishining nisbatan kam ulushi ushbu sohaning boshqa manbalar orqali ham moliyalashtirilishi bilan izohlanishi mumkin. Shu bilan birga, kelgusida tashabbusli budjet doirasida sog'liqni saqlash infratuzilmasiga e'tiborni kuchaytirish imkoniyatlari mavjud. O'tgan besh yilda tashabbusli budjet jarayoni uchun ajratilgan mablag'lar hajmini hududlar kesimida tahlil qilish bu mexanizmning davlat moliya tizimidagi ahamiyati barqaror sur'atlarda ortib borayotgan ekanligini ko'rsatadi. Jami moliyalashtirish miqdori besh yil ichida bir necha marta ko'payib, so'nggi mavsumlarda har bir davrda ikki-uch trillion so'm atrofida mablag' taqsimlanmoqda. Hududlar ichida Farg'ona, Samarqand va Toshkent viloyatlari eng yuqori moliyalashtirish hajmiga ega bo'lib, ushbu hududlarga ayrim mavsumlarda uch yuz ellik milliard so'mga yaqin yoki undan ortiq mablag' ajratilgan. Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida ham besh yillik davrda mablag' hajmi bir necha barobar oshgan, dastlabki davrda qirq besh-ellik milliard so'm atrofida bo'lgan ko'rsatkich so'nggi mavsumlarda ikki yuz ellik milliard so'mdan oshgan. Shuningdek, Sirdaryo, Navoiy va Jizzax kabi aholisi nisbatan kam bo'lgan hududlarda moliyalashtirish hajmi boshqa hududlarga nisbatan kamroq shakllangan. Poytaxt bo'yicha ayrim mavsumlarda o'zgaruvchan dinamika kuzatilgan, xususan, so'nggi mavsumda mablag' hajmining oldingi davrlarga nisbatan kamayishi qayd qilingan bo'lib, fikrimizcha, bu holat poytaxtda boshqa markazlashgan investitsiya dasturlarining mavjudligi bilan izohlanishi mumkin. Moliyalashtirish hajmining hududiy taqsimoti aholi soni va infratuzilmaviy ehtiyoj darajasi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi, ammo ayrim hududlarga nisbatan kamroq mablag' ajratilishi hududlar o'rtasidagi moliyalashtirish tafovutlarini kamaytirishga qaratilgan yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish jamg'armalarining daromad va xarajat ko'rsatkichlari tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, 2024–2025-yillar davomida aksariyat hududlarda tushum va xarajatlar hajmi sezilarli darajada oshgan. Eng yuqori tushum ko'rsatkichi Samarqand viloyatida qayd qilingan bo'lib, bu yerda yillik tushum to'qson milliard so'mga yaqinlashgan, xarajatlar esa ellik uch milliard so'mdan oshgan, natijada yil yakunida ellik olti milliard so'mdan ortiq mablag' qoldiq sifatida saqlangan. Bu holat hududda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi bilan bir qatorda kelgusi yillar uchun mablag' jamg'arish salohiyati ham mavjud ekanligini ko'rsatadi. Qashqadaryo viloyatida ham o'xshash tendensiya kuzatilib, qirq milliard so'mga yaqin tushumning katta qismi xarajatlarga yo'naltirilgan va yigirma sakkiz milliard so'mdan ortiq mablag' qoldiq sifatida shakllangan. Poytaxtda esa o'ziga xos dinamika kuzatilgan, yil boshidagi qoldiq mablag' yuqori bo'lgani



holda, xarajatlar nisbatan past darajada bo'lib, natijada yil yakunida qoldiq mablag' yanada oshgan. Bunday holat poytaxtda tushumlarning yuqori darajada shakllanishi va mablag'larning bir qismi kelgusi davrlarga saqlab qolinayotganini bildiradi. Sirdaryo va Navoiy hududlarida esa tushum va xarajatlar hajmi boshqa hududlarga nisbatan kamroq shakllangan, bu esa mazkur hududlarning iqtisodiy salohiyati va aholi sonining nisbatan kamligi bilan izohlanadi.

2026-yilning birinchi mavsumidan boshlab joriy etilgan "Deputat tashabbusi" mexanizmi doirasida ajratilgan mablag'larni tahlil qilish hududlar o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligini ko'rsatdi. Eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona viloyatida qayd etilib, bu yerga yigirma to'rt yarim milliard so'm atrofida mablag' ajratilgan, Samarqand viloyati esa unga yaqin ko'rsatkich bilan ikkinchi o'rinni egallagan. Shu bilan birga, Sirdaryo viloyatida ajratilgan mablag' hajmi olti milliard so'm atrofida bo'lib, nisbatan past ko'rsatkich sifatida qayd etilgan, Navoiy va Jizzax viloyatlarida ham ko'rsatkich sakkiz-to'qqiz milliard so'm darajasida qolgan. Bunday tafovut har bir hududning aholi soni, infratuzilmaviy ehtiyojlari va deputatlar tashabbuslari ko'lami bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi va mexanizmning dastlabki bosqichida hududlar kesimida moliyalashtirish mezonlarini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Tashabbusli budget jarayoniga oid o'n uchta ko'rsatkich bo'yicha o'tkazilgan tavsifiy statistik tahlil hududlar o'rtasida yuqori dispersiya mavjud ekanligini ko'rsatdi. Xususan, ajratilgan mablag'ning o'rtacha hajmi ikki yuz o'n olti milliard so'm atrofida bo'lib, minimal va maksimal qiymatlar orasidagi farq uch baravardan ortiqni tashkil qilgan. Loyihalar sonining o'rtacha ko'rsatkichi bir ming besh yuzga yaqin bo'lib, ayrim hududlarda bu ko'rsatkich ikki mingdan ortiq, boshqalarida esa to'qqiz yuzga ham yetmaydi. Qoniqish darajasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich sakson uch foizni tashkil etadi, standart og'ishning nisbatan pastligi ushbu ko'rsatkich bo'yicha hududlar o'rtasida katta farq mavjud emasligini, ya'ni aholining tashabbusli budget natijalaridan qoniqish darajasi barcha hududlarda nisbatan bir xil yuqori saqlanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, aholining jalb qilinish darajasining o'rtacha ko'rsatkichi yigirma yetti foiz atrofida bo'lib, bu jarayonga fuqarolarning yanada faolroq jalb etilishi uchun keng imkoniyatlar mavjud ekanligini anglatadi.

O'tkazilgan korrelyatsion tahlil moliyaviy va natijaviy ko'rsatkichlar orasida yuqori darajadagi o'zaro bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Ajratilgan mablag' hajmi bilan g'olib loyihalar summasi o'rtasidagi bog'liqlik juda yuqori darajadagi chiziqli bog'liqlik bilan tavsiflanadi, shuningdek, mablag' hajmi loyihalar soni va ovoz berish faolligi bilan ham yuqori darajada bog'liq. Shu bilan birga, aholining jarayonda ishtirok etish darajasi bilan boshqa ko'rsatkichlar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik aniqlanmadi. Bu natija moliyaviy resurslar hajmining ortishi aholi faolligining mutanosib ravishda oshishi bilan doimo ham bog'liq emasligini ko'rsatadi. Shu bois, fuqarolar ishtirokini kengaytirishda tegishli institutsional yondashuvlar va rag'batlantirish mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi shunday, sheriklik loyihalari bo'yicha g'olib chiqqan loyihalar soni ham boshqa ko'rsatkichlar bilan zaif bog'liqlikka ega bo'lib, bu yo'nalishning institutsional mexanizmlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Tashabbusli budgetlash mavzusi xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan turli jihatlaridan keng o'rganilgan. Rossiya va boshqa MDH davlatlari tadqiqotchilari, jumladan, Vagin, Vorobiev, Pyatkovskaya va Vasiljeva kabi mualliflar tashabbusli budgetlashning kichik shaharlar va qishloq hududlarida fuqarolar ishtirokini oshirish vositasi sifatidagi rolini, shuningdek, mintaqaviy huquqiy tartibga solish tajribalarini tahlil qilishgan. Frolova, Rogach va Razov singari tadqiqotchilar mazkur mexanizmning aholi turmush sifatini oshirishdagi o'rniga e'tibor qaratgan bo'lsa, Lyakisheva va uning hammualliflari uni mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning amaliy vositasi sifatida takomillashtirish imkoniyatini o'rgangan. Alohida ilmiy yo'nalish sifatida Shatohin, Titov va Sergienko kabi mualliflar tashabbusli budgetlashni raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish modellarini tadqiq etganlar.

O'zbekistonlik tadqiqotchilardan Zokirova, Xaydarova, Shavkatov, Bozorov, Karabaev, Abdusamatov, Yunusova va Yunusov kabi mualliflar davlat-xususiy sheriklik va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish masalalarini milliy sharoit asosida tahlil qilishgan, shu jumladan, Xajiyev daromadlarni qayta taqsimlashda tashabbusli budgetning xorijiy modellarini, Jumaniyazov esa fuqarolik ishtirokidagi turlarini o'rgangan. Shunga qaramay, mavjud ilmiy adabiyotlarda tashabbusli budgetning aynan infratuzilma obyektlarini moliyalashtirishdagi o'zni, uning moliyaviy samaradorligi va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'siri masalalari nisbatan kam tadqiq etilgan bo'lib, bu tadqiqot mavzusining ilmiy yangiligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil O'zbekiston Respublikasida tashabbusli budget mexanizmining hududiy infratuzilmani rivojlantirishning barqaror va o'sib borayotgan moliyaviy manbaiga aylanayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, hududlar va yo'nalishlar bo'yicha mavjud tafovutlar, sheriklik loyihalarining institutsional jihatdan yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda aholi ishtirokinining moliyaviy ko'rsatkichlardan nisbatan mustaqilligi kabi jihatlar ushbu mexanizmi yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Aniqlangan tendensiyalar va statistik bog'liqliklar



keyingi tadqiqot bosqichida ilmiy asoslangan takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish uchun empirik asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zokirova F. Yashil loyihalarni davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – T. 3. – № 5. – DOI: 10.5281/zenodo.15653640. – URL: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/5756>.
2. Xaydarova Ch. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – T. 2. – № 9. – B. 422–427. – URL: <https://green-eco.uz/index.php/GED/article/view/2983>.
3. Karabaev S. O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish va amalga oshirish tahlili // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – T. 3. – № 5. – DOI: 10.5281/zenodo.15570946. – URL: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/5625>.
4. Abdusamatov B. Jahon amaliyotida hududiy infratuzilmani rivojlantirishni boshqarish vositasi sifatida davlat-xususiy sheriklikning o'rni // Advances in Science and Sustainability. – 2026. – T. 2. – № 5. – B. 13–17. – DOI: 10.70728/susta.v02.i05.003. – URL: <https://science-sustainability.uz/index.php/journal/article/view/85>.
5. Yunusova S.B. Davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirishni rivojlantirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: Toshkent moliya instituti, 2022. – 15 b. – URL: <https://oak.uz/index.php/pages/9360>.
6. Ollokulova F. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ESG tamoyillari asosida moliyalashtirishning ustuvor yo'nalishlari // Nashrlar. – 2026. – T. 5. – № 3. – B. 103–108. – DOI: 10.60078/2026-vol5-iss3-pp103-108. – URL: <https://sci-p.uz/index.php/editions/article/view/3897>.
7. Yunusov F. O'zbekistonda 2024-yilda "Tashabbusli byudjet" loyihasining natijalari va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2025. – T. 3. – № 2. – B. 233–246. – DOI: 10.60078/2992-877X-2025-vol3-iss2-pp233-246. – URL: <https://sci-p.uz/index.php/eitt/article/view/2208>.
8. Xajiyev B.D. Daromadlarni qayta taqsimlashda "Tashabbusli byudjet" tizimini qo'llashning zamonaviy modellari va ulardan samarali foydalanish yo'llari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2023. – T. 1. – № 9. – B. 464–471. – URL: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2449>.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

